

Bugun Alisher Navoiy tavallud topgan kun

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

№:6 (67015)  
2015-yil  
9-fevral

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

Navoiy va Boburdek buyuk,  
Bobolarning izdosklarimiz.  
Bayrog'ini baland ko'targan,  
O'zbekiston hur yoshlarimiz.

Sh. MAXMADIYEV olgan suratlar.  
C. FARMONOV chizgan rasm

QUSH  
TILINI YOD  
OLGAN  
BOLA

2-sahifa

BUVISINING  
SUYUKLI  
NABIRASI

7-sahifa

BOLAM  
SINFINGIZDA  
O'QISIN

4-sahifa

«BOBURNOMA»  
KITOBXONLAR  
QO'LIDAN  
TUSHMAYDIGAN  
ASAR

3-sahifa

Ushbu sonda:





# Odob – bolalar ziynati



Oqil kishi har bir ishni qilishdan oldin fikrlab, qaysi biri o'ziga foydali bo'lsa, uni bajarishga shoshiladi. Buning uchun aql bilan birga, yana unda adab ham bo'lishi lozim.



barakoti bilan umrdin barxurdor (bahramand).

**Kichiklar mehrin ulug'lar ko'nglig'a solur va ul muhabbat ko'ngulda muabbad (abadiy) qolur. Ushug'larni ko'zga ulug' qilur, atvoridin xalq ulug'liq bilur. Xalq jonibidin behurmatliq eshigin bog'lar va kishini hazl va istixfofdin (kamsitish) saqlar.**

Shundan ham bilamizki, adab inson ziynati va ko'rki bo'lib, yoshu qarini ulug' martabaga ko'taradi. Bunga misol tariqasida bir qadimiy

hikoyatni keltirsak, maqsad yanada oydinlashadi: bir ulug' kishi yolg'iz o'zi uyiga ketayotgan edi. Bir bola chopib kelib, u bilan yonma-yon yura boshladi. Ulug' kishi hayron bo'lib, unga: «Ey bola, menda biron ishing bormi?» dedi. Bola: «Sizning sog'ligingiz kerak, ko'chada yolg'iz ketayotganingizni ko'rib, agar oldingizdan yomon narsa uchib o'tgudek bo'lsa, sizni jonim bilan himoya qilmoqchi edim», dedi. Abdulloh uning qo'lidan tutib, uyigacha birga ketishdi. Uygay yetganda bir narsani olib chiqib: «Bu senga hadya, shunday tarbiya bergan ota-onang qandayam yaxshi!» deya uni maqtadi. Qarangki, odobli bola shunday bo'ladi. U ko'chada o'zi tanimagan kishini xulqi va so'zi bilan lol qoldirdi

va unga odobi ma'qul kelib, mukofotga ham sazovor bo'ldi. Xalqimizda «Odob bozorda sotilmas», «Odobli bola elga manzur» va «Odobni beodobdan o'rgan» kabi maqollar ayni odob va tavoze' haqida to'qilgan. Odobni o'ziga odat qilib olgan bola hech qachon hayotda qiynalmaydi. Shuning uchun har bir bola kichik yoshidan odobli bolalarga qo'shilib, birga dars qilib, ko'chada ham katta-yu kichikka xushmuomalada bo'lib, mehr-muhabbat qozonishi va hamma uni ko'rganda, qaniydi mening bolam ham shunday bo'lsa, deb havasini keltirishi va tarbiya bergan ota-onasiga rahmat aytishlariga sazovor bo'lishi kerak. Dunyoda yaxshi odamlar ko'paygan sari hayot ham yanada totli va zavqli bo'ladi.

*Bobomurod ERALI, tadqiqotchi*

Vaqtida farzandga odob berilmasa, bu jabrni ota-onasi va o'zi ham tortishini fikrlab ko'ring. Shu bois, Navoiy bobomiz «Mahbub ul qulub» asarining «Tavoze' va adab zikrida» bobida adab va tavoze' haqida so'z yuritib, bu ikkisi kishilar o'rtasida mehr-muhabbat uyg'otishi va samimiy munosabat paydo qilishda katta ahamiyat kasb etishini tahlil qilib beradi: «Adab kichik yoshlig'larni ulug'lar duosig'a sazovor etar va ul duo

## NAVOIYNING O'CHMAS NAVOSI

Shunday ulug' zotlar borki, ular adabiyotimiz osmonida mangu yulduz kabi charaqlab turadilar. Yulduzlardan taralayotgan nur esa yorug'lik manbai bo'lib xizmat qiladi. Har birimiz dunyolardan-da keng, sirli hamda mo'jizakor osmonga boqar ekanmiz, son-sanoqsiz mitti yulduzlarga guvoh bo'lamiz-u, ular orasidagi o'zgacha bir yulduz bizni o'ziga jalb qila boshlaydi. Ha, bu, albatta, buyuk shoir, mutafakkir Alisher Navoiyga berilayotgan ta'riflardan biri sanaladi.

Navoiy ijodi dur-u gavharlardan-da qimmatli ma'naviy ozuqadir. Shoir har bir asarida jamiyat hayoti, inson tarbiyasi bilan bog'liq muhim masalalarga o'z munosabatini bildiradi. Jumladan, «Farhod va Shirin» dostonida haqiqiy inson qanday bo'lishi kerak, degan savolga asarning bosh qahramonlari Farhod va Shirin obrazlari orqali javob beradi. Bobomizning fikricha, haqiqiy inson yoshligidanoq imon-e'tiqodli bo'lishi, ilm-ma'rifatga qiziqishi, hunar o'rganishi, xalq, mamlakat ishiga fidoyi, do'stiga sodiq bo'lishi dardkor.

Navoiy dostonlarini o'qir ekanmiz, shunday qahramonlar obraziga duch kelamizki, ularni hech shubhasiz yoqtirib qolamiz. Shoir o'z asarlarida adolat, ma'rifat, ishq-muhabbat, sadoqat va do'stlikni ulug'laydi.

Dunyoda go'zal fazilatli insonlarning borligi bizni yanada quvontirgan holda doimo olg'a intilishimiz uchun madad beradi. Bu kabi go'zal fazilat egalari esa to'lib-toshib oqayotgan daryoga o'xshaydi. Undan barcha bahramand bo'ladi. Alisher Navoiy ham misoli daryo. U o'zbek adabiyotini jahon miqyosiga ko'targan va avlodlarga boy meros qoldirgan shoir. Uning asarlarini qayta-qayta o'qiyimiz va har gal ulardan yangi-yangi ma'naviy ozuqaga ega bo'lamiz.

**Sitora NAPASOVA,**  
Navoiy viloyati, Zarafshon  
shahridagi 12-umumta'lim  
maktabining 7-«A»  
sinf o'quvchisi



## Qush tilini yod olgan bola



Shuning uchun bo'lsa

kerak, she'riyat mulkining sultoni yaratgan cheksiz g'azaliyot bo'stoniga sayr etish ilinjida tinimsiz mehnat qilayotgan fidoyi ustozlarimizni ummondan dur izlayotgan g'avvoslarga qiyoslagimiz keladi. Ana shunday ustozlardan biri ko'p yillardan buyon Sariosiyo tuman ta'lim jarayonini tashkil etish va metodik xizmat ko'rsatish rahbari Davlatboy Mahmudov bilan uchrashdik. Ustoz bilan bo'lgan suhbatimizda tumanda ta'lim sohasida qilingan bir qancha xayrli ishlarning guvohi bo'ldik.

– Biz buyuk bobokalonimiz qoldirgan noyob asarlardagi dur-u javohirlarni o'quvchi qalbiga yanada chuqurroq jo etish uchun yangicha yo'l bilan yondashdik. To'rt yil avval Alisher Navoiyning 570 yillik to'yini keng nishonlash arafasida bizda shunday fikr paydo bo'ldi. «570-70-7» raqamlari ostida tanlov e'lon qildik. Unga tumandagi 74 ta umumta'lim maktablarining g'azalxon o'quvchilari jalb etildi. Tanlov sharti shundan iborat ediki, tuman bosqichida ishtirok etayotgan o'quvchilar Navoiyning kamida 70 ta g'azalini yoddan bilishi shart edi. Biz Navoiy Hazratlarining g'azallaridan 70 tasini saralab, билет tuzdik. Yuqori bosqichga ko'tarilgan ishtirokchi 7 ta билет oldi. Ularda bobokalonimiz g'azallarining birinchi bayti yozilib, g'azalxon o'quvchi uning to'liq matnini mahorat bilan yoddan o'qidi. G'azallarni bexato, me'yoriga yetkazib o'qigan o'quvchi g'olib deb topildi. G'oliblarga qimmatbaho sovg'alar bilan birga Navoiyning o'n tomlik nodir asari sovg'a qilindi. Shundan so'ng o'quvchilarning Navoiy ijodiga qiziqishi yanada oshdi. Ayni damda tumanimizdagi barcha maktablarda bu an'ana keng targ'ib etilmoqda. Birgina misol, shu tanlovdan so'ng tumanimizdagi 5-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Samandar Rahmonov Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» dostonini to'liq yodlab chiqdi. 7-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Nilufar Zokirova hozir Navoiydan 120 ta g'azalni yoddan biladi.

Ustozning so'zlaridan to'g'risi hayratimiz yuz chandon oshdi. Elda «Yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqshdek yurakda muhrlanib qoladi», degan maqol bor. Ustoz Davlatboy Mahmudovning Alisher Navoiy g'azallarini kelajak avlod ongiga chuqur singdirib borish borasida qilayotgan xayrli ishlari respublikamizdagi barcha maktablarida targ'ib etilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi.

Buyuk bobokalonimiz Hazrat Navoiyning boy merosi qariyb olti asrdan buyon insoniyat aql zakovatini lol qoldirib kelmoqda. Har bir bayt zamirida olam-olam ma'nolarni jam etgan tafakkur ilmining bilimdoni, ko'ngil mulkining bebaho kuychisi Mir Nizomiddin Alisher Navoiy asarlarida borliqning betakror ranglari o'z jilosi bilan kishini doimo o'ziga mahliyo etadi.



– Navoiydan yod olgan g'azallarim 120 ta bo'ldi, ustoz, – deydi Nilufar.



14-fevral – Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun

# «BOBURNOMA» Kitobxonlar so'lidan tushibmaydigan asar



Yurtboshimizning «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida ta'kidlanganidek: «Bunday ulug' zotlarning hayot yo'li va qoldirgan merosini to'liq tasvirlash emas, balki ularning eng buyuk namoyandalari timsolida ma'rifati, ilm-u fan, madaniyat, din kabi sohalarining barchasini o'zida uyg'unlashtirgan xalqimizning ma'naviy olami naqadar boy va rang-barang ekanligini isbotlab berishdan iboratdir. Bunday noyob va bebaho boylikni har tomonlama chuqur o'rganish, uning ma'no-mazmunini farzandlarimizga yetkazish masalasi barchamiz, birinchi galda, ziyolilarimiz, butun jamoatchiligimiz uchun ham qarz, ham farz bo'lishi shart, deb hisoblayman».

Ana shunday noyob boylik, adabiy meros sirasiga o'zbek tili va adabiyoti, tarixi, madaniyatini o'zining olamshumul asarlari bilan boyitgan buyuk vatandoshimiz, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma»sini kiritishimiz mumkin. Bu asarda to'raligicha hayotiy tajriba, tarbiya, qiyinchilik va og'ir damlarda inson sabr-bardoshi, mardlik, hayotni sevish kabi fazilatlar haqida so'z boradi. Asardagi yana bir muhim jihat – inson tarbiyasi, uning turli qirralari o'z aksini atroflicha topganki, bu har bir yosh o'g'il-qiz uchun ibrat namunasi bo'la oladi, deyish mumkin.

«Boburnoma»da muallifning o'g'li Humoyunga yozgan maktubi keltiriladi. Bu maktubning tarbiyaviy jihati shundaki, oradan 500 yildan ko'proq vaqt o'tgan bo'lsa-da, o'z ahamiyatini zarracha yo'qotmagan.

Bobur to'ng'ich o'g'liga yozgan maktubida boylikka o'chlik buyuk saltanatga raxna solishi mumkinligi, aka-ukalarning bir-birlarini hurmat qilishlarini o'tinib so'raydi. Yana maktubda u mamlakatdagi turli din, elat va millatlar qadriyatlarini hurmat qilish lozimligi, mol-davlat uchun bir-birlariga hurmatsizlik qilish nojoiz ekanligini qayd etadi.

Shuningdek, noyob asar milliy qadriyatlarimizni tiklash, insonlarning o'zaro oqibatti bo'lishlari, ilm-ma'rifatga intilishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi tayin.

**Yusufjon HAMDAMOV, filologiya fanlari nomzodi**

## Bebaho satrlar ohangi

Poytaxtimizdagi 171-umumta'lim maktabida bugungi kunda 2300 dan ziyod o'g'il-qizlar zamonaviy talablar darajasida bilim olishmoqda. Mudojaa vazirligi tasarrufidagi mazkur bilim maskani rahbariyati hayotimizdagi muhim sanalarni bolalar qalbidan chuqur joy olishi borasida keng qamrovli ishlarini amalga oshirmoqda. Kuni kecha bu yetda o'tkazilgan «Assalom, Navoiy bobo!» tadbiri ham o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi.



## AJDODLAR YODI

– Aziz o'quvchilar! Navbatdagi tarbiyaviy soatni g'azal mulkining sultoni, bobomiz Alisher Navoiyga bag'ishlasak, nima deysiz?

Ustozning bu taklifi 5-«A» sinf o'quvchilarini birdek sevintirib yubordi. Shu kuniyoq zukko bilimdonlar

tadbirda tayyorgarlikni boshlab yuborishdi.

Ochiq tarbiyaviy soatda o'quvchilar Navoiy hayoti va faoliyati haqida qiziqarli ma'lumotlarni keltirib, g'azal, ruboiy va hikmatlardan yod aytib berishdi. Ayniqsa, «Yaxshidan bog' qoladi» mavzusidagi kichik sahna ko'rinishi mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

– Ochiq tarbiyaviy soatimiz juda qiziqarli va mazmunli o'tdi. Buning uchun ustozimiz, sinf rahbarimiz Umida opa

Beginqulovaga rahmat, – deyishdi Samarqand viloyati, Narpay tumanidagi 24-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchilari Alisher Toshniyozov, Mavluda Bekmurodova.

Tadbir sabab o'quvchilar Navoiy haqida ko'plab ma'lumotlarni bilib olishdi.

**Feruza ABDUSAMAD qizi**



Salkam qirq yillik tajribaga ega, Xalq ta'limi a'lochisi, oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Dilobar opa Qo'chqorova shogirdlari Alisher Navoiy tavallud ayyomiga puxta hozirlik ko'rganliklarini namoyish etdilar. Yuqori sinf o'quvchilari tomonidan shoirning g'azal va ruboiylari ifodali o'qilgan chog'da ko'plab o'quvchi-yu mehmonlar yig'ilgan zalga ajib sokinlik cho'kdi. Asrlar osha yashab kelayotgan bebaho satrlar barchani birdek to'qinlantirib yubordi. «Navoiy» drammasidan sahna ko'rinishi namoyish etilganda esa tomoshabinlar go'yo olis o'tmishga sayohat qilganday bo'ldilar.

Tadbirdan so'ng maktab hovlisi bo'ylab katta yo'l tomon ketib borar ekanmiz, yonimizdan o'tib borayotgan

o'quvchilarning adog'i ko'rinmasdi. Eng asosiysi esa, ular bugungi tadbir haqida gurunlashib borardilar. Shu lahzalarda ular qalbidagi Hazrat Navoiyga ehtirom tuyg'usi muhrlanib borayotgan bo'lsa, ne ajab?! Maktabda o'tkazilgan navbatdagi tadbirdan murod hosil bo'ldi.



## O'z muxbirimiz



N. SULTONOV, A. HAMIDULLAYEV olgan suratlar







«Keksalarni e'zozlash yili» munosabati bilan Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi 1-IDUMda «Nuroniyalar — elning donishmandlari» mavzusida tadbir bo'lib o'tdi.

## HAYOTNING BEZAGI — SERMAZMUN UMR

Mazkur tadbirga shu maktabda uzoq yillar faoliyat yuritib, bugungi kunda keksalik gashtini surayotgan ustozlar «Mehnat shuhrati» ordeni sohibi, «Xalq maorifi a'lochisi», kimyo fani o'qituvchisi Rahimqul Ravshanqulov, «Xalq ta'limi a'lochisi», ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Halima Samanova, tarix fani o'qituvchisi Ergash Halimov, fizika fani o'qituvchisi Rahmatilla Hakimov, mahalla keksalaridan Majid Saribayev, Saodat Isroilova, Yusufboy Usanovlar taklif etildi. Uchrashuv mehmonlari o'z hayotlaridan, qalblarida muhranib qolgan bolalikning eng qiziqarli damlaridan, kasb mas'uliyati, bugungi tinch, osuda yurtda keksalik gashtini surayotganliklari haqida to'liq inonib gapirdilar. Shuningdek, doimo olg'a intilish, kasbni to'g'ri tanlash, imkoniyatlardan unumli foydalanishning ahamiyati, Vatanga, xalqqa, ota-onaga munosib farzand bo'lishga chaqirdilar.

Tadbirni kuzatar ekansiz, keksalar qalbidagi mehr ummonini, zamonaviy sharoitlarda ta'lim olayotgan bugungi yoshlarga havas bilan boqishlarini, ko'zlaridagi quvonch, osoyishta yurtda yashashlik baxtidan shukronalik hissini anglaysiz. Zero, ularning o'g'itlari, maslahatlari yoshlar uchun hamisha zarurdir.

**O'zbek ma'rifatparvar adiblaridan biri Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» nomli asarida ilm o'rganish borasida yozgan edi: «Ilmning fidoyisi shu qadar ko'pdirkir, ta'rif qilgan bilan ado qilish mumkin emas». Mazkur hikmatni shior qilib olgan o'quvchi-yoshlarimiz fan sirlarini qunt bilan o'rganib, yutuqlarga erishib kelmoqda. Bugungi kunda izlanuvchan, ilmga chanqoq yoshlarni respublikamizning turli burchaklarida uchratish mumkin.**

## ANIQ FAN A'LOCHISI

Buxoro viloyatining kenja tumani hisoblangan Qorovulbozorda 8-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Azizbek Zubaydullayev nafaqat maktab, balki tuman miqyosida a'lochi, jamoatchi o'quvchilardan hisoblanadi. U matematika, fizika, informatika, ingliz tili fanlarini alohida qiziqish bilan o'qiydi, ona tili, tarix, geografiya fanlariga ham bee'tibor emas. Mana uch yildirki, bu o'quvchi matematika fanidan «Bilimlar bellashuvi»da faol qatnashib, g'olib bo'lib kelmoqda.

— Men tahsil olayotgan maktabda o'quvchi-yoshlarning puxta bilim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Ustozlarimiz tajribali, bilimdon, — deydi Azizbek. — Men dastlab hisob-kitobni otamdan o'rgandim, chunki uning kasbi hisobchilik. Akam Shamsiddin bilan birgalikda har bir o'tilgan dars, uya vazifani muntazam tayyorlaymiz.



Matematika fani a'lochisi o'tgan yili «Bilimlar bellashuvi»ning viloyat bosqichida 95 ball to'plab, faxrli 2-o'rinni egalladi. Fan o'qituvchisi Ismoil Primov shogirdi bilan doimo mashg'ulotlar o'tkazib, misol va masalalarni oson yo'llar bilan yechish sirlarini o'rgatib keladi.

Azizbek Zubaydullayev kelgusida matematika yo'nalishini bitirib, o'zi ta'lim olgan maktabda ustozidek o'qituvchi bo'lishni istaydi.

Biz esa buxorolik o'quvchining bir kun kelib ta'lim tizimi ravnaqiga munosib hissa qo'shishiga ishonamiz.

**Qor malikasi... yangidagi qor parchalari kabi yal-yal tovlangan libos. Kiborli qirolicha... saroy xonimlaridan ajratib turadigan betakror, nafis matodan yaratilgan bejirim libosi... Kishini hayratlantiruvchi bu go'zalliklar Mohira ismli qizning rasmlar ko'rgazmasida o'z aksini topgan.**



Poytaxtimizning Shayxontohur tumani-dagi 13-umumta'lim maktabining 9-«V» sinfida tahsil olayotgan Mohira Xoliqova «Kamalak yulduzlari — 2014» ko'rik-tanlovining tuman bosqichida liboslar dizayni yo'nalishi bo'yicha faxrli o'rinni egalladi.

Uning ko'rgazmadagi rango-rang liboslar galereyasini tomosha qilarkanmiz, yosh dizaynerning nozik didi-yu keng dunyoqarashidan zavqlandik.

Mohiraning erishgan yutuqlari zamirida ustozlar mehnati, qadrdon maktabida o'quvchilar uchun yaratilgan keng imkoniyatlardandir. Iste'dodli o'quvchi kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib, yurtimiz yoshlariga o'zining zamonaviy uslubda yaratgan liboslarini tufta etishni niyat qiladi. Kamolingga ko'z tegmasin!

OLMOS

Manzura UBAYDULLAYEVA

## BOLAM SINFINGIZDA O'QISIN

Yaqin o'rtda Urganchga safar qilmagan bo'lsangiz, albatta, boring. Bugun shahar qiyofasi tubdan o'zgarib bormoqda. Bir-biridan chiroyli binolar qad rostlab, ko'rkiga ko'rk qo'shilgan. Shaharni qoq o'rtrasidan kesib o'tgan Shovot kanali esa nafaqat shaharliklar, balki xorijiy mehmonlarning ham sevimli sayilgohiga aylangan. Kanal yoqalab borar ekanman, qisqa fursat ichida uning yon-atrofi ehtaklardagiday go'zal manzaraga ega bo'lgani bir hayratimga o'n hayrat qo'shardi. Kanaldan qo'l yetgudek masofada joylashgan 5-umumta'lim maktabida bo'lganimda, rahbar o'rinbosari O'g'iljon To'rayeva bilan muloqot chog'i ta'lim maskanida yutuqlar salmog'i kundan kunga ortib borayotganiga guvoh bo'ldim.

Hech e'tibor berganmisiz, biror viloyat haqida gap ketssa, beixtiyor u yerdagi tarixiy obidalar, tanish-bilishlaringiz ko'z oldingizdan o'tadi. Xorazmga safar oldidan menda shunday bo'ldi.



Yusuf OG'AY

O'g'iljon opaning taklifiga binoan 4-«D» sinfga kirganimizda, mendagi havas va zavqing chegarasi ko'rinmasdi. Xonadagi 48 nafar o'quvchi bir-biridan zukkoligiga qoyil qolmaslikning iloji yo'q. Sinf rahbari Umida Sobirova har bir o'quvchi uchun alohida daftar ochib, o'quvchining xulqi, o'zlashtirishdagi yutuqlari, qo'yingki, bolaning hayotiga doir har bir voqeani qayd etib borarkan. Viloyat televideniyesi bilan hamkorlikda olib boriladigan «Bolalar vaqti» dasturi viloyat o'quvchilarining sevimli ko'rsatuviga aylangan. «4-D»chilar unda tengdoshlarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlariga yordam beradilar.

Dastur ssenariysini yozuvchilar, ijro etuvchilar ham o'quvchilarning o'zlari. Eng muhimi, ular o'z minbarlaridan foydalanib, erkin fikrlashga o'rganmoqdalar.

Urganchlik bir tanishim Umida opaning sinfida nevarasi yoki farzandi ta'lim olishini xohlovchilar sanog'i yo'q, degan gapidan fidoyi ustozga havasim keldi. Yosh muallimning izlanishlari, sa'y-harakatlari o'z samarasini berayotgani naqadar zavqli.

Yusuf OG'AY



WORLD VIEW OF NAVOIY

Lesson 22

BOBUR'S GARDENS (Bobur bog'lari)



(Navoiyning nurli olami)

After independence of our country the attention of creative works of Alisher Navoiy increased. Especially, the year of Navoiy and the monument of this great person in the national park of Uzbekistan is example of this.

Alisher Navoiy is a person on a world scale, the master of priceless ability, the great poet of Uzbek people.


Navoiy was great master of capability, he learnt by heart fifty thousand distiches and hundred thousand couplets of poems.

In order to Bobur was in difficulties in his whole life, he lived enjoying of beauty. Wherever he had gone he always did good things and left pleasant memories of himself.

There is a garden «Bog'i Bobur» in the capital of Afghanistan – Kabul city and it was one of his beautiful, famous garden.

Bobur brought different flowers, fruit and picturesque trees for this garden. We can say that «Bog'i Bobur» was a beauty of at that time but nowadays it is one of the famous garden of the city.

Boburshah create such as, «Bo'stonsaroy», «Bog'i Nur», «Chorbog'», «Bog'i Xilvat», «Bog'i Behishti» and «Bog'i Istolib» they mean that our ancestry had great spirit and affection.




HOW DID OUR ANCESTRY DETERMINE THE TIME?

(Ajdodlarimiz vaqtni qanday aniqlagan?)

Early men did not have clocks. They told time by the sun and the shadows of trees. At first, they used sticks placed in the ground instead of trees. They made marks on the ground and the shadows from the sticks told the time of day.

Later, men began to use sundials. Some sundials were boxes with a stick to cast a shadow. Men were able to carry the sundial box with them. The mark for noon was very important. The sundial always had to face the same way or the time was wrong. Sundials were good only on sunny days, not on cloudy days. They were the first kind of clock.



Words to know:  
Shadow – soya  
Stick – cho'p  
Sundial – quyosh soati  
Cast – suqmoq

Exercises

A) If it is true put the tick (✓) Paragraph one says:

- \_\_\_\_\_ 1. Early men used the moon to tell time.
- ✓ \_\_\_\_\_ 2. Early men used shadows to tell time.
- \_\_\_\_\_ 3. Early men began to make clocks.

Paragraph two says:

- \_\_\_\_\_ 1. Sundials were the first clocks.
- \_\_\_\_\_ 2. Sundials used trees to tell time.
- \_\_\_\_\_ 3. Sundials were used on cloudy days.



B) What's missing? Find the missing adverbs in the reading:

- 1. \_\_\_\_\_ they used sticks.
- 2. \_\_\_\_\_, men began to use.
- 3. The sundial \_\_\_\_\_ had to face
- 4. \_\_\_\_\_ were good \_\_\_\_\_ on sunny days.

C) What's missing? Find the missing adjectives in the reading:

- 1. \_\_\_\_\_ men did not have clocks.
- 2. \_\_\_\_\_ sundials were boxes.
- 3. For noon was very \_\_\_\_\_.
- 4. Face the \_\_\_\_\_ way.
- 5. Only on \_\_\_\_\_ days.
- 6. The \_\_\_\_\_ kind of clock.

Dinara SHAKIROVA tayyorladi

MODAL VERBS (Modal fe'lllari)





Must  
Must fe'li ma'lum bir kuch ta'siridagi zaruratni, buyruq yoki maslahatni ifodalaydi. Must «kerak» deb tarjima qilinib, hozirgi va kelasi zamondagi ish-harakatni ifodalaydi.  
For example: You must post the letter at once.  
You must consult a doctor.  
Umida G'OFUR qizi

ANTONYMS (Antonimlar)

Find the opposite words:

- Doctor – patient
- Buy
- Give
- Teach
- Mother
- Front
- Win
- Before
- Left
- Silence



Ibrohim FAYZIRAHMONOV



## MUALLIMIM

Ona, Vatan so'zlarini o'rgatganim,  
Fido bo'lsin elim uchun jon-u tanim.  
Dunyodagi bolalardan yo'qdir kamim,  
Sizsiz mening mehribonim muallimim!



Har so'zingiz dur-u gavhar dars atalmish,  
Sizga minglar rahmat aytar, bilmog'dasiz.  
Asli Navoiy ham sizdan saboq olmish,  
Muallimim, siz dildagi mash'alimsiz!

Ustoz, sizga so'z yetmagay ming yozsalar,  
She'rlar bitsa shoirlari har qancha kam.  
Ado bo'lmas poyingizga gul eksalar,  
Muallimim – komillikda oliy hakam!

Sarvinoz G'ANIYEVA,  
Yashnobod kompyuter texnologiyalari  
kasb-hunar kolleji o'quvchisi

## YUR, OFTOBGA CHIQUAYLIK!

Oftobga intiq bashar,  
Kimdir oftobsiz yashar.  
Kitob – oftob deyshar,  
Yur, oftobga chiqaylik!



Olib ilm-qudratni,  
Quvlab ig'vo-bid'atni.  
Olqishlab ma'rifatni,  
Yur, oftobga chiqaylik!

Oftobsiz bo'lmas hayot,  
Oftob – kitob qo'shqanot.  
Bo'lsin ular barhayot,  
Yur, oftobga chiqaylik!

Bolalik davri shirin,  
Bolalik sir-yashirin.  
Unga yoqmoqchi bo'lsang,  
O'zida bo'lib ko'rin.

## SAVOL-JAVOB

– Quyosh har kun ketib qoladi,  
Nega bizda yuravermaydi?  
– Dunyo kezib zavqlar oladi,  
U bir joyda turavermaydi.

– Nega Quyosh chiqishdan oldin,  
Yurtimizda tonglar otadi?  
– Chunki Quyosh o'zidan oldin,  
Bizga nurini uzatadi.

Nevara yana fikrini jamlar:  
– Nega Quyosh ketadi botib?  
Bobo aytar: – Endi odamlar  
Dam olsin, deydi, tunda yotib.

Ayubxon MUHAMMADIY

## YAQINLARDAN XABAR OL

Mehrga qonmas inson,  
Shirin so'zdan qil ehson.  
Bo'lsin mehring-la omon,  
Yaqinlardan xabar ol.

Og'ir kunda suyanching,  
Gar qoqilsang tayanching.  
Borligi baxt, quvonching,  
Yaqinlardan xabar ol.

Kutar intizor, mushtoq,  
Yuragida ming titroq.  
Demagil hech yo'l yiroq,  
Yaqinlardan xabar ol.

Mehr tengsiz yagona,  
Tuyg'u ichra durdona.  
Hammaga bo'l namuna,  
Yaqinlardan xabar ol.

Ra'no ABDUMALIKOVA,  
Beshariq tumanidagi 41-umumta'lim  
maktabining 7-sinf o'quvchisi



## UCH DUGONA

Qushlar go'yo shod, erkin,  
Uchganday keng fazoda.  
Birgamiz uch dugona —  
Muxlisa, men, Ozoda.

Xursand bizdan onalar,  
Mehnatkashimiz har ishda.  
Mamnundir otalar ham,  
A'lochimiz o'qishda.

Garchi turfa bo'lsa ham,  
Boshda fikr, o'yimiz.  
O'ynaymiz ahil, inoq,  
Tengdir hatto bo'yimiz.

Do'stlik bizni ustunday,  
Suyab turar dunyoda.  
Ayrimlas uch dugona —  
Muxlisa, men, Ozoda.

Parizoda ABDUQODIROVA,  
Jizzax viloyati, Mirzacho'l tumanidagi  
12-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

## KELAJAK EGASI



Do'stim, hayotingdan zavqlanib yasha,  
Noo'rin, noshukur bir so'z aytmagin.  
Eng yuksak va ezgu maqsadlar sari,  
Intilgin-u aslo ortga qaytmagin.

Vaqtni qadrla, u oltinga teng,  
Mayda tashvishlarga qilma e'tibor.  
Unutma, kelajak egasi sensan,  
Zimmangda burchlaring, vazifang bisyor.

Xalqimizning sendan umidi katta,  
Qalblarda ezgulik chirog'ini yoq.  
Baxtiyor yoshliging qadrlab yasha,  
Hayotga teranroq nigoh bilan boq.

Gulnoza AKROMBEKOVA,  
poytaxtimizning Olmazor tumanidagi  
11-umumta'lim maktabining  
9-«V» sinf o'quvchisi

O'shanda Saidjon maktabni bitirish arafasida edi. Bir kuni sinf rahbari kim qanday kasbni egallashi haqida o'quvchilardan so'ray boshladi. Sinfdoshlarining biri advokat, biri shifokor, yana biri o'qituvchi, deya o'zlari kelgusida egallamoqchi bo'lgan

Saidjon bolaligidan otasining ishlariga qarashib yurib, tadbirkorlikka qiziqib, dehqonchilik sirlarini bilib oldi. U Qishloq xo'jaligi oliygohini tugatdi, otasining ishini davom ettira boshladi. Xorijiy yurtlarda malaka oshirishda bo'ldi. Saidjon zamonaviy fermer ham bilimdon, ham usta dehqon bo'lishi zarurligini angladi.

Hamma kasbning ham zamirida mehnat yotadi, ko'pchilikka foydasi tekkan kasb o'z egasini ulug'laydi, derdi otasi.

El-yurtga nafing tegayaptimi, shu sening iqboling, deya aytgan o'g'itini har qadamda his etib turadi.

Dala aylanib yurgan Saidjon oppoq qor qoplagan dalalarga bir zum termilib qoldi.

Yer namdan ko'pchib turibdi. U mo'l hosil berishga kuch yig'ayotgandek tin olmoqda. Saidjon hayot yo'lida tanlagan kasbidan g'ururlangan dalalarni uzoq aylandi.

Sohibaxon O'SARALIYEVA,  
Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi  
2-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

## QAYSARVOYNING QUYILISHI



Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qalin o'rmondahayvonlarorasidashalpanguloqquyonchayashar ekan. U juda qaysar edi. Bir kuni do'stlari uni sayr qilishga

chaqirishibdi. Dangasa quyon zo'rg'a rozi bo'libdi. Ular o'rmondagi katta ko'prik yoniga borishib, qiziqarli o'yinlar o'ynay boshlashibdi. Biroq quyoncha ko'prikning narigi tomonida nima borligiga juda qiziqib qolibdi. Do'stlari unga u yoqqa borish xavfli ekanligini qayta-qayta aytishibdi. Lekin quyoncha o'jarlik bilan yo'lida davom etibdi. Ko'prikdan o'tishi bilan bitta ayyor tulkiga ro'para bo'libdi. Tulki o'lja o'z oyog'i bilan kelayotganini ko'rib, ko'zlari chaqnaganicha unga tashlanibdi. Qo'rqib ketgan quyon qaltiraganicha joyida qotib qolibdi.

Yaxshiyam ko'prikni narigi tomonidagi quyonchalar yordamga kelib, tulkning o'tkir panjasidan qaysarvoyni qutqarishdi. Quyoncha dir-dir qaltiraganicha do'stlari davrasida uyasi tomon ketib borarkan, boshqa o'zboshimchalik qilmaslikka, kattalarga quloq solishga so'z beribdi.

Sevarbek ELBOYEV,  
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumanidagi  
118-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi



## TADBIRKOR

kasblarini ayta boshladi. Navbat Saidjonga kelganida, u oddiygina qilib, dehqon bo'lmoqchiman, dedi. Sinfda gur etib kulgi ko'tarildi. Chunki orzular qanotida uchib yurgan bolalarning hech biri tom yopuvchi usta, yer bilan tillashadigan dehqon, chorvador bo'lishni xayollariga ham keltirmagandi.





– No'monjon, huv No'monjon, tur bolam, maktabingga kech qolasan, – Muazzam momo shifokor o'g'lining yakka-yu yolg'iz farzandini avaylab uyg'otadi. Suyukli nabira alohida hovlida tursa-da, buvisining holidan tez-tez xabar olishni kanda qilmaydi. Ro'zg'or ishlariga ham yordami tegib turadi.

## BUVISINING SUYUKLI NABIRASI



Qashqadaryo'ning Yakkabog' tumanidagi 2-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

No'monjon Muhiddinov hamma fanni a'loga o'zlashtirmasa-da, kundalik daftari da «5» bahoga qaraganda «5» ko'proq. Sinf rahbari Matluba Tursunova biologiya fanidan saboq beradi. Talabchan ustoz guruhidagi 34 ta o'quvchining dars o'zlashtirishi-yu davomatini muntazam nazorat qilib boradi. No'monjon tashkiliy ishlarda

sinfdozlariga bosh-qosh. U eng yaqin do'stlari Orif Hamroyev, Temur Norboboyev, Jalol Ro'ziboyev bilan birgalikda maskanda tashkil etilgan basketbol to'garagiga qatnashadi. To'garak a'zolaridan tashkil topgan jamoa turli musobaqalarda faol ishtirok etib keladi. O'tgan yili tuman miqyosidagi musobaqada 1-o'rinni egallagan jamoa viloyatda faxrli 2-o'rinni oldi. Murabbiy Qo'ldosh aka Ochilov o'quvchilariga basketbolning nozik sirlarini o'rgatish bilan birga, respublika bellashuvlarida qatnashishga tayyorlab boradi.

No'monjon Muhiddinov kelajakda otasi Yo'ldosh O'runov singari qo'li yengil shifokor bo'lmoqchi. Momo nabirasiga «Har doim sog'lom bo'lsang, jamiyatimizga ko'proq nafing tegadi. Buning uchun maktabda a'lo o'qi, sport esa doimiy yo'ldoshing bo'lsin!» deb ta'kidlaydi.

## AKA-SINGIL SPORTCHILAR

Hikoyamiz qahramonlari Muxsin va Jasmina bir oila farzandlari. Jondorning Ko'libolo qishlog'idan bo'lgan aka-singil sinfdoshlar tumandagi 32-bolalar va o'smirlar sport maktabida sportning qo'l to'pi turi bilan shug'ullanib kelishadi.

Tajribali murabbiy Hoshim Samadov hamda Maftunabonu Samiyeva rahbarligida maskanda mazkur sport turi bo'yicha o'smirlar va qizlar jamoasi tashkil qilingan bo'lib, ular jamoalarning faol a'zolari sanaladi.

Muxsin Abdumannonov a'zolidagi jamoa 2014-yil Vobkentda o'tkazilgan 1999–2000-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasidagi viloyat musobaqasida 1-o'rin, «Viloyat BSRJning 12 yilligi»ga bag'ishlab o'tkazilgan musobaqada ham 1-, joriy yilda 8–9-sinf o'quvchilari o'rtasidagi «Umid nihollari» musobaqasining shahar bosqichida 1-o'rin sohibi bo'ldi. Jasmina Abdumannonova ishtirokidagi qizlar jamoasi ham yuqorida sanab o'tilgan musobaqalarda xuddi shunday o'rinlarni egalladi.

## JISMONIY BARKAMOLLIK – GO'ZALLIK RAMZI

Badiiy gimnastika go'zallik, nafosatni o'zida mujassam etgan sport turlaridan biri hisoblanadi.

Sirdaryo viloyatining Xovos tumanidagi 1-IDUMning iste'dodli o'quvchilaridan biri, 5-sinf o'quvchisi Dilrabo Imomnazarova sportning gimnastika turi bilan besh yoshdan boshlab shug'ullanib keladi. Nafis sport turi sohibasi tuman, viloyat va respublikada o'tkazilayotgan musobaqalarda faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, 2014-yil «Umid nihollari» sport musobaqasida 2-, «Bahor malikalari» musobaqasida 1-, viloyat chempionatida 3-o'rin hamda viloyat birinchiligida 1-o'rin va Toshkent shahrida o'tkazilgan «Bahor» turnirida 1-o'rinni, «Mini Alina» musobaqasida 2-o'rinni egalladi.

Dilrabo sport bilan shug'ullanishdan tashqari, maktabda o'zining namunali xulqi bilan tengdoshlariga o'rnak bo'lmoqda. U bo'sh vaqtlarida ta'lim muassasasida o'tkaziladigan tadbirlarda raqslari bilan ishtirok etadi. «Ingliz tilini o'rganaman» to'garagining faol a'zosi.

– Sog'lom bola – yurt tayanchi, el suyanchi, dil quvonchi. O'quvchimiz Dilrabo Imomnazarovadan umidimiz katta,– deydi ta'lim maskani ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Bahriniso Otaqulova.

Darhaqiqat, Xovos tumanining chekka hududida zamonaviy talablarga javob beradigan mo'jaz maktabda Dilrabaday sport sohibalari ko'payaversin.

Zarnigor MUSAYEVA



## MENING G'OLIB SINFDOSHLARIM

Maktabimizda 9-«V»ni futbolchilar sinfi deyishadi.

Yaqinda tumandagi Paxtakor o'yingohida 1-, 6-, 36-umumta'lim maktabi o'quvchilari o'rtasida «Umid nihollari –2015» hududiy bosqichining futbol bo'yicha saralash musobaqasi bo'lib o'tdi. Unda 5–7-sinflar orasidagi bahslarda maktabimiz o'quvchilari 2-o'rin, 8–9-sinflar orasidagi bellashuvda esa 1-o'rinni olishga muvassar bo'lishdi. G'alaba qozonishimizda jismoniy tarbiya o'qituvchilari Abror Jalilov, Rasulbek Rahimovning xizmatlari beqiyos. Musobaqa yakunida maktabimiz jamoasi tuman xalq ta'limi bo'limi tomonidan 1-darajali diplom bilan taqdirlandi.

Azimboy KARIMOV,  
Namangan viloyati, Uychi tumanidagi  
36-umumta'lim maktabining  
9-«V» sinf o'quvchisi

Buloqboshi tumanidagi bolalar va o'smirlar sport maktabi Andijon viloyatining faxri, desak mubolag'a bo'lmaydi.



Jondor tumanidagi 32-umumta'lim maktabining 9-«B» sinfida tahsil olayotgan aka-singil sportchilarga omad tilaymiz!

## UBAYDULLO – ZO'R DARVOZABON

Shu kunga qadar yosh futbolchilar erishgan g'alabalar talaygina. O'tgan yili maktab o'quvchilari Kogon shahrida bo'lib o'tgan respublika turnirida 1-o'rinni egallashdi.

Futbol maktabi o'quvchilarining yangi zafarlaridan biri, joriy yilning 5–10-yanvar kunlari Toshkent shahrida U-19 yoshlar o'rtasida futbol bo'yicha O'zbekiston birinchiligida Buloqboshi BO'FM jamoasi faxrli 3-o'rin uchun kurash olib bordi. O'z guruhida 2-o'rinni egallagan jamoa Jizzax viloyati jamoasini 6:4 hisobida mag'lub etdi. Jamoa darvozaboni Ubaydullo Homidov musobaqaning «Eng yaxshi darvozabon» nominatsiyasini qo'lga kiritdi.

Shuhrat Rashidov, Avazbek Abduvaliyev hamda «Eng yaxshi darvozabon»dan iborat 3 nafar futbolchilar U-19 respublika terma jamoasiga qabul qilindi.

Muhammadsodiq ALIMOV



## CHUMCHUQ ARZI

O'zim kichik,  
Chumchuqqina boladirman.  
Bog'bonlarga  
Goho hayron qoladirman.  
Uzum pishgach,  
Uzumzordan quvishadi.  
Ortimizdan tosh ham otib turishadi.  
Aybim nima,  
Bog' yashnasin deganimmi?  
Achchiq qurtga  
Uzum qo'shib yeganimmi?



## AYIQPOLVON

- Maymoqvoy, - deb  
Kulsangiz ham,  
- Pahmoqvoy, - deb  
Suysangiz ham,  
Pahlavonman,  
G'irt to'pori.  
Mardroq bormi  
Aytin, qani?  
Ammo shu payt  
Bo'ldi paydo,  
Pashshadayin  
Ko'rsang go'yo.  
Zo'rlar zo'ri  
Ekan botir.  
Asalidan olsam,  
Chaqdi,  
Lunjim mana  
Shishayotir...



Bahrom AKBAROV

## Qizaloqning ulkan orzusi

Bolalarning  
atrof-muhit,  
dunyoni  
anglashida tasviriy  
san'atning o'rni  
alohida ahamiyat  
kasb etadi.



Zero, bola o'zining dastlabki tasavvurlarini aynan chiziq, shakllar, ranglar orqali ifodalashga harakat qiladi. Kattalarning ko'ziga soddagina ko'ringan, bir qarashda beo'xshovgina bo'lgan chiziqlarda bolaning o'y-fikrlari, ma'lum ma'noda fantaziyasi aks etadi. Shuning uchun ham bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda tasviriy faoliyatga alohida e'tibor qaratiladi. Bu mashg'ulot bilan bolalar bog'chasidan tashqari uyda ham shug'ullanilsa, shubhasiz, bolaning rivojlanishi samarali kechadi. Shu bois, poytaxtimizdagi «Kamol avlod» bolalar bog'chasining tarbiyalanuvchisi Shahzoda Xo'jayevaning rasm chizishiga o'ta-onasi jiddiy e'tibor qaratadi. Qolaversa, xolasi rassom va pedagog Zilola Sulaymonova unga kerakli tavsiyalarni berib boradi. Shahzoda o'zbek, rus, arab va ingliz tillarida she'r va qo'shiqlar aytadi, raqsga tushish, ertak to'qish, uy yumshlarida onasiga yordamlashish, har xil mozaikalardan tasvirlar hosil qilishni, plastilindan turli buyumlar yasashni ham biladi. Biroq uning tasviriy san'atga qiziqishi o'zgacha. Har bir rasmini nomlab, sharhlab berishni yaxshi ko'radi. Sevimli mavzusi esa «Men, onam va dadam sayrda», shuningdek, har xil kiyim, soch turmaklari tasvirini «ixtiro qilish»ni ham xush ko'radi. Shanba va yakshanba kunlari maktabga tayyorlov guruhiga qatnab, o'qish, chiroyli yozishni o'rganib bormoqda. Bugungi kunda respublikamizdagi maktabgacha ta'lim muassasalarida orzulari bir olam Shahzoda kabi bolajonlarimiz ulg'ayayotganidan suyuandik.

## YANGI QO'LLANMALAR - BOLALAR UCHUN

Yaqinda Yunusobod tumanidagi 486-maktabgacha ta'lim muassasasida M.Fayzullayeva va M.Rustamova muallifligida 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning maktabgacha ta'lim muassasasiga tayyorlash uchun yaratilgan 5 ta suratli qo'llanma taqdimoti o'tkazildi.

Ushbu qo'llanma maktabgacha ta'limga qamrab olinmagan bolalarning ota-onalari uchun yaratilgan bo'lib, unga slaydlar, suratli ko'rgazmalar, nasriy va she'riy asarlar, bolalarning yoshiga mos ertak va rivoyatlar hamda hikoyalar kiritilgan.

Taqdimotda 486-MTM mudirasi Umida Mavlonova va 21-umumta'lim maktabi direktori Nasiba Agzamova ota-onalarga ushbu qo'llanmalarining mohiyati, uning bolalarni maktabgacha ta'limga tayyorlashdagi ahamiyatini uslubiy qo'llanma va slaydlar asosida tushuntirib berdilar.

Tadbir yakunida ota-onalar mazkur qo'llanmadan foydalanishda maktab kutubxonasi bilan hamkorlik o'rnatishni kelishib olishdi.

Maryam AHMEDOVA

Nozima QUDRAT qizi

## RASMLARDA ORZULAR AKSI

Aziz bolajonlar, sizlardan tahririyatimizga juda ko'plab maktublari keladi. Viloyatlardan kelgan xatlar orasidan rasmlarni tanlab olib, «Rasmlar ko'rgazmasi»ni tashkil qildik. Tengdoshlaringiz chizgan tasvirlarni kuzatar ekanmiz, har bir chizgida orzulari mujassamligini ko'rdik. Siz ham tengdoshlaringiz singari san'atning biror turiga qiziqasizmi? Unda, biz bilan bu haqda o'rtoqlashing.



Nilufar QAYPANOVA,  
Qoraqalpog'iston Respublikasi,  
Kegeyli tumanidagi 11-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi



Nafisa BERDIQULOVA,  
Navoiy shahridagi 3-umumta'lim  
maktabining 1-sinf o'quvchisi

## TO'PISHMOQ

Tongda xabar tarqatar,  
Hamda qo'shiqlar aytar.  
Yosh-u qari doimo,  
Uni sevib eshitar.  
Sizga bo'lar yaqin do'st,  
Topolmaysiz kam-u ko'st.  
Qani ayt-chi, Mahliyo?  
- Ha, topdim, bu...

Faxriyor BAXTIYOROV,  
Navoiy shahridagi  
7-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi



Ozoda AMINOVA,  
Qashqadaryo viloyati,  
Kitob tumanidagi  
2-umumta'lim  
maktabining 7 sinf  
o'quvchisi

9-fevral 2015

Bosh muharrir  
Feruz ADILOVA

**Tahrir Hay'ati:**  
Omonulla YUNUSOV,  
Abdug'ani XOLBEKOV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Sobitxon TURG'UNOV,  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Feruz JALILOVA,  
Sa'dullo TURSINOV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

Navbatchi  
muharrir  
Axtamquli  
KARIMOV  
Rassom  
Feruzbek  
KAMOL o'g'li

Manzillimiz:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»  
NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni  
chiqadi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 46278  
Buyurtma - S 2075

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati  
Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot  
va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.